

## IKKI ADABIYOT VORISI

**Feruzaxon Akmalova**

Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instiuti assistenti

**Abduhalimova Odinaxon Rustambek qizi**

Andijon qishloq xo‘jaligi va agrotexnologiyalar instituti talabasi

### **ANNOTATSIYA**

*Maqolada o‘zbek-tojik adabiy aloqalari, xususan tojik she’riyati tarjimalari, tarjimon mahorati tahlil qilingan. Shuningdek, yurtimizda adabiyotshunoslikni rivojlantirish uchun amalga oshiralotgan islohotlar bo‘yicha ilmiy ma’lumotlar berilgan*

**Kalit so‘zlar:** *Qardosh xalqlar, tojik adabiyoti, o‘zbek-tojik adabiy aloqalari, ilmiy risola, janr, asliyat uslubi, tarjimashunoslik.*

### **АННОТАЦИЯ**

*В статье анализируются узбекско-таджикские литературные связи, особенности переводов таджикской поэзии, мастерство переводчика, а также дается научная информация о реформах, которые могут быть осуществлены для развития литературоведения в нашей стране.*

**Ключевые слова:** *Братские народы, таджикская литература, узбекско-таджикские литературные связи, научный трактат, жанр, оригинальный стиль, переводоведение.*

### **ANNOTATION**

*The article analyzes Uzbek-Tajik literary relations, especially translations of Tajik poetry, translation skills. Also, scientific information is given on the reforms that can be implemented for the development of literary studies in our country.*

**Key words:** *Sister nations, Tajik literature, Uzbek-Tajik literary relations, scientific treatise, genre, original style, translation studies.*

### **Kirish**

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining “Yangi O‘zbekistonning 2022–2026 yillarga mo‘ljallangan taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi 28.01.2022 yildagi PF-60-son farmoniga muvofiq ishlab chiqilgan 2022 — 2026 yillarda O‘zbekiston

Respublikasini besh yillikda mamlakatimizda amalga oshiriladigan islohotlarning zarur siyosiy-huquqiy, ijtimoiy-iqtisodiy va ilmiy-ma'rifiy asoslarini yaratib berishga qaratilgan rivojlantirishning yettita ustuvor yo'nalishi bo'yicha taraqqiyot strategiyasi asosida olib borilayotgan islohotlar samarasini yanada oshirish, davlat va jamiyatning har tomonlama va jadal rivojlanishi uchun shart-sharoitlar yaratish, mamlakatimizni modernizatsiya qilish hamda hayotning barcha sohalarini liberallashtirish, aholi va tadbirkorlarni o'ylantirayotgan dolzarb masalalarni har tomonlama o'rganish, amaldagi qonunchilik, huquqni qo'llash amaliyoti va ilg'or xorijiy tajribani tahlil qilish asnosida qator ishlar amalga oshirilmoqda.

Aynan 2022 — 2026 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning yettita ustuvor yo'nalishi bo'yicha taraqqiyot strategiyasining beshinchi yo'nalishi hisoblangan jamiyatda millatlararo totuvlik va dinlararo bag'rikenglik muhitini mustahkamlashga yo'naltirilgan davlatimiz mustaqilligi va suverenitetini mustahkamlash, O'zbekistonning yon-atrofida xavfsizlik, barqarorlik va ahil qo'shnichilik muhitini shakllantirish, mamlakatimizning xalqaro nufuzini mustahkamlash borasidagi vazifalarni amalga oshirish ta'lim jarayonining ham uzviy qismidir. Xususan, adabiy ta'lilda qardosh xalqlar adabiyoti namunalarining o'qitilishi millatlararo yaqinlik, totuvlik tuyg'ularini shakllantirishda muhim omil hisoblanadi. Ikkinci tomondan qardosh xalqlar madaniy boyliklari bilan tanishish o'quvchida o'z milliy merosimizga o'zgacha ko'z bilan qarashga, uni munosib baholashga imkon yaratadi.

Maqolamizda tojik adabiyoti namunalaridan o'zbek o'quvchisini bahramand qilgan mohir yozuvchi borasida fikr yuritamiz. Badiiy, ilmiy ijod jahbalarida shunday sohibqalamlar borki, qaysi yo'nalishda izlanmasinlar, barchaga birday manzur asarlar yarata oladilar. Mashhur olim, nozikta'b adib, sermahsul tarjimon, o'zbek-tojik adabiy aloqalarining zakiy donishmandi To'xtasin Jalolov ana shunday keng qamrovli, barchaga ma'qul musannif edilar [1, 203b]. Bo'lg'usi serqirra adib 1909 yil Marg'ilon tumaniga qarashli Qoratepa qishlog'ida dehqon oilasida tug'ilgan. Otasi Mulla Jalol

madrasa ko‘rgan, biroz muddat maktabdarlik qilgan bo‘lsa ham, umr bo‘yi dehqonchilik, bog‘dorchilik bilan shug‘ullangan.

To‘xtasin aka dastlab ma’rifatli qiblagohi maktabida tahsil oladi. Yetti yoshida bobosi Muhammad Is’hoq uni Shahrixonga olib ketadi. To‘xtasin eski usul maktabida o‘qiydi. 1924–1925 yillarda bo‘lg‘usi adib Farg‘onadagi ikki yillik o‘qituvchilar tayyorlash kursni tugatib, Shahrixon maktablarida ona tili va adabiyotdan dars berdi. O‘tgan asrning 40-yillarida ijod maydoniga kirib kelgan fidoyi adib To‘xtasin Jalolov o‘zidan katta meros qoldirdi. 1939–1940 yillarda buyuk o‘zbek shoiri va mutafakkiri Alisher Navoiy haqida “Xamsa” talqinlari” kitobini yoza boshlagan ijodkor pedinstitutlarning O‘zbek tili va adabiyoti fakultetlari talabalari uchun “O‘zbek adabiyoti tarixi xrestomatiyasi”ni (XIII–XV asrlar) tuzdi; o‘zbek adabiyotining kam o‘rganilgan sahifalarini aniqlash bo‘yicha ko‘p yillik izlanishlarini yakunlab, “O‘zbek shoiralari” (1959), “Pahlavon Mahmud” (1961), “Bonu” (1963), “Yashasin tabassum” (1966), “Nafosat olamida” (1971), “Qizlar qasidasi” (1977) singari kitoblarini nashr ettirdi. Zahmatkash olim “Xamsa” talqinlari”da adab olimlari orasida birinchilardan bo‘lib “Xamsa” dostonlarini mazmun, g‘oyaviy yo‘nalish, obrazlar tizimi, asardagi an’ana va o‘ziga xoslik, eng muhimi, badiiylik nuqtai nazardan izchil, lo‘nda, ommabop tahlil qilgan [1,214b]. Bu asar o‘tgan asrning 80-yillariga qadar Navoiy “Xamsa”sining tub mohiyatini, o‘ziga xosligini keng ilm-adab ahliga yetkaza oladigan yagona qo‘llanma edi. Shuning uchun ham bu ilmiy-ommabop risola qayta-qayta nashr etilgan va shoir muxlislarining sevimli kitobiga aylangan.

Biz professor, atoqli tarixshunos A. Muxtorov tadqiqotlari tufayli sohibdevon tojik shoirasi Dilshodi Barnoning hayoti va ijodiy merosi bilan XX asrning o‘rtalarida oshno bo‘lgan edik: o‘tgan asrning 60-yillariga kelib esa, To‘xtasin ustozning Qo‘qonu Xo‘jand va Toshkent dastxat xazinalarida tinimsiz olib borgan kuzatishlari hosilasi sharofati o‘laroq shoiraning o‘zbek tilida bitilgan “Qarolar falsafasi” ilmiy risolasi, turli janrlarda yaratilgan she’rlarini o‘qishga tuyassar bo‘ldik [2,255b]. Natijada, Dilshodi Barno adabiyotimiz tarixidagi zullisonaynlik an’anasining zabardast vakili ekanligini bilib oldik. Umuman, “O‘zbek shoiralari” tahlilga jalb etilgan barcha

dalillarning mutlaqo yangiligi, o‘ta samimiy, ta’sirchanligi, faqat To‘xtasin Jalolovga xos nafis uslubda yozilganligi va tahlil qilinganligi bilan benazir kitobdir. Muallif o‘sha yillari ushbu asari bilan o‘zbek adabiyoti tarixining yangi sahifalarini kashf etgan edi. Adabiyotimiz tarixida To‘xtasin Jalolov ko‘p tilni biladigan, qardosh xalqlar adabiyotining jonfido bilimdoni, zabardast tarjimon sifatida ham o‘ziga xos mavqe va o‘ringa ega. Zeroki, u buyuk hind adibi Robindranat Tagorning 29 asarini, jumladan, “Halokat”, “Ko‘zga tushgan cho‘p”, “Bibha sohili”, “Donishmand Roja” romanlarini, o‘zbek va tojik adabiyotining buyuk siyomosi Sadriddin Ayniyning “Esdaliklar”ini, Sotim Ulug‘zodaning “Vose”, V.Smirnova-Rakatinoning “Abu Ali ibn Sino” romanlarini o‘zbek tiliga asliyatga mos va rost tarzda zo‘r mahorat bilan tarjima qilgan. Bu asarlar o‘z vaqtida tarjimashunoslar tomonidan yuksak baholangan edi. Adibning Pahlavon Mahmud ruboiylarini o‘zbek tiliga mahorat bilan o‘girgani u kishining she’riy salohiyatini ko‘rsatadi. Ustozning asarlari ozar, rus, tojik va qirg‘iz tillarida ham e’lon qilinib borar edi. Muallim “Hayotim yilnomasi” xotiralarida shunday yozgan: “Darvoqe, man tojik farzandiyu o‘zbek adibiman. Demak, ikki madaniyat, ikki adabiyotning komil huquqli vorisiman va shu bilan faxrlanaman”. Pokdomon ijod sohibi, nuktafahm she’rshunos, sohibqalam yozuvchi To‘xtasin Jalolov 1984 yili Toshkent shahrida olamdan o‘tganlar. Ammo, u kishi yaratgan badiiy va ilmiy ijod ne’matlari bilan hamisha xalqimizga, keng o‘quvchilar ommasiga hamisha hamrohu hamqadamdir

### ***FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI***

1. *Jalolov T. Go ‘zallik olamida. – Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1979, 324-bet.*
2. *O‘zbek adiblari.-Toshkent: Sharq nashriyoti, 2001, 255-262 b.*
3. *Isomiddinov Z.I. Tyurkskiy epos i problemi perevoda. - T.: Universitet, 1995.-113 b.*
4. *Oskotskiy V. Svyaz vremeni // Noviy mir. -1972. -№ 4. -S. 238.*